

VATANGA MUHABBAT YUKSAK INSONIY FAZILAT

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881595>

**Abdukarimova Roxila Abdurayimovna**

*Farg'ona Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Vatan – bu insonning tug'ilib o'sgan yeri, uning go'daklik chog'idanoq mehr qo'ygan o'chog'i, mahallasi va qishlog'i bilan ta'riflanadi. Vatan so'zi arab tilida tug'ilib o'sgan joy, ona yurt ma'nosini anglatadi. Vatanga muhabbat yuksak insoniy fazilat. Bu borada: "Vatanni sevmoq imondandir" hikmatini esga olishning o'zi kifoyadir.*

**Kalit so'zlar:** *vatan, vatanga muhabbat, insoniy fazilat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlar.*

### KIRISH

Vatanga muhabbat avvalo insonning o'z oilasi, uyi, mahallasi hamda tug'ilib o'sgan yurtiga mehr-muhabbatidir. Vatanga muhabbat yuksak insoniy, yaxshi fazilatlardan hisoblanadi. Bu haqda "Vatanni sevmoq iymondandir" deyilgan hikmatni esga olish kifoya. Darhaqiqat Islom insonparvar, vatanparvar, millatparvar din. U barcha insoniy tuyg'u va qadriyatlarni ulug'laydi va insonlarni shunga o'rgatadi. "Vatan" atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi.

Buyuk mufassir imom Faxriddin ar-Roziy rahmatullohi alayh fikricha vatanga bo'lgan muhabbat inson tabiatida bo'lgan his bo'lib, bu tuyg'u insonda mustahkam o'rnashgan bo'ladi. Imom bunga misol qilib Qur'onning Niso surasi 66-oyatini keltiradilar: Agar Biz ularga: «O'zlaringizni o'ldiring yoki yurtingizdan chiqib keting», — deb buyurganimizda edi, ozchiligidan boshqasi uni qilmagan bo'lur edilar.

### ASOSIY QISM

Vatanparvarlik ma'lum va mashhur tamoyil bo'lib, u insonning o'z Vatanga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash esa hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi.

Vatanga muhabbat aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanga muhabbat tuyg'usini yaratmaydi, balki, uni tayyor holda qabul qiladi. Chunki vatanga muhabbat uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir.

Vatanga muhabbat ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo'lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday

qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalik kabi ezgu g'oyalari yotadi.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ma'naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Vatan mustaqilligini ta'minlashda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir. Milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash milliy o'zlikni anglashning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Shu bois, Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Zero, vatanga muhabbat ijtimoiy hayotimizning asosiy zarurati hisoblanadi, chunki usiz bunyodkorlik ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak.

Yoshlarga har sohada o'zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g'oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni oiladan boshlamoq kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo'g'inidir. Shunday ekan, jamiyatga kerakli kadrlarni oila yetkazib beradi. Oilada bola ulg'ayadi, o'sadi. Ana shu voyaga yetish jarayonida oila maktabining o'rnini beqiyos. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga bo'lgan muhabbat, hurmat keyinchalik bir butunlik sifatida Vatan so'zida mujassamlashadi. Shunday ekan, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni ma'naviy yuksalishiga zamin yasaydi. Oilada bolalarimizga ertaklar aytayotganimizda ham milliy ertaklardan, afsonalardan, rivoyatlardan foydalanishimiz u yerdagi qahramonlarning mardlik, jasurlik, o'z vatanini hech narsaga alishtirmaslik, uni bir parcha tuprog'ini ham muqaddas bilish lozimligini ajdodlarimiz ma'naviy meroslaridan foydalangan holda uzviy olib borishimiz vatanimiz kelajagini mevasini yaratadi.

Xususan, Shiroq, To'maris, Alpomishlarning jasoratlari milliy qadriyatlarimizning, an'alarimizning, asrlar osha bizga yetib kelgan urf-odatlarimizning saqlanib, bardavom bo'lishida asos bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usining barq urishida ta'lim va tarbiyaning uzviyligi muhim o'rin tutadi. Bunda, oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va oliy o'quv yurtlari faoliyatida uzviylik tamoyilining tatbiq etilishi vatanparvarlik tuyg'usining yanada takomillashuviga olib keladi.

Vatanga muhabbat tuyg'usi – bu jamiyatdagi ma'naviy shakllanishning chuqur ildizini ochib beruvchi o'ziga xos kalitdir. Zero, insoniylikning eng muhim fazilati kishining Vatanga bo'lgan muhabbati bilan belgilanadi.

### **XULOSA**

Ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqod va muhabbatning in'ikosidir.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g'urur kabi g'oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o'zligini anglashga erishishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Raxmonov, A. R. (2021). MAKTAB O'QUVCHILARIDA MILLIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY VOSITALARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 1549- 1556b June, 2022
2. <https://qoshtepa.uz/site/view/news/2057>
3. <https://yuz.uz/uz/news/insoniylikning-eng-muhim-fazilati--vataniga-bolgan-muhabbatdir>